



# **JAHON ARXIVLARI TARIXI VA ZAMONVIY ARXIVSHUNOSLIK**

**SEMINAR MASHG'ULOTLAR  
UCHUN  
USLUBIY KO'RSATMA**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

***ARXIVSHUNOSLIK KAFEDRASI***

**JAHON ARXIVLARI TARIXI VA ZAMONVIY ARXIVSHUNOSLIUK**  
**fanidan**

**SEMINAR MASHG'ULOTLAR UCHUN**

**USLUBIY KO'RSATMA**

**NAMANGAN – 2018**

Ushbu uslubiy ko'rsatma Namangan Davlat universitetining o'quv-uslubiy kengashi tomonidan 2018 yil 29-avgustda 1- sonli yig'ilishida tasdiqlangan **"Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik"** fanining na'munaviy dasturi talablari asosida ishlab chiqildi.

Mazkur uslubiy ko'rsatma oliy o'quv yurtlari Arxivshunoslik ta'lim yo'nalishining bakalavriat bosqichi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, unda arxivshunoslik ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi fanlarga oid atamalar bo'yicha bilimlar, ko'nikma va malakalar berish belgilab berilgan.

**Ma'sul muharrir: A. A. Sarimsokov,**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Taqrizchilar: A. A. Erqo'ziyev,**  
tarix fanlari nomzodi

**N. B. Dexkanov,**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Uslubiy ko'rsatma Namangan davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2018-yil 20-sentyabrdagi 2- sonli yig'ilishida muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

**B. R. Xalmuratov.**

Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik. (Seminar mashg'ulotlar uchun uslubiy ko'rsatma). – Namangan, 2018. – 78 b.

© **Namangan davlat universiteti**

## Kirish

Ushbu uslubiy ko'rsatmada Qadimgi Sharq, Misr, Yunoniston va Rimda arxivlarni paydo bo'lishi va rivojlanishi, o'rta asrlarda Sharq va G'arb davlatlarida arxiv ishi, Uyg'onish davri va yangi tarix davrida arxivlarni rivojlanishi xususiyatlari, Yevropa davlatlarida o'tkazilgan arxiv ishi reformalari; dunyoning yetakchi markazlashgan va demarkazlashgan arxiv tizimlari, Xitoy va Hindistonda arxiv ishini rivojlanishi; AQShda arxiv ishi, Rossiya arxivlarining taraqqiyoti, eng yangi davr arxivlari, Xalqaro arxivlar Kengashi va davra stolining tashkil etilishi; arxiv ta'limining paydo bo'lishi va rivojlanishi kabi masalalarni mohiyati ochib beriladi hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

Shuningdek, **"Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik"** fani haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adabiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Shu bilan birga, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning tarixiy dunyoqarashini boyitish, ularda mustaqil fikrni qaror toptirish, tarixni mukammal darajada bilish, insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashish va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish kabi dolzarb masalalarni o'rganadi.

## **I semester**

**1-mavzu: “Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik” fanining maqsad va vazifalari.**

### **Reja:**

1. Insoniyat taraqqiyotida arxivlarning o'rnini va roli.
2. Zamonaviy dunyoda arxivlar va ularning ahamiyati.
3. Xorijiy arxivlar tarixining tarixshunosligi va manbashunosligi.
4. Hozirgi zamon asosiy arxivlarida O'zbekiston tarixiga oid hujjatlar.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda “Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik” fani to'g'risida tushunchalar hosil qilish, fanning predmeti, maqsadi va vazifalari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Insoniyat taraqqiyotida arxivlarning o'rnini va roli. Arxivlar insoniyat xotirasining saqlovchi muhim xazina. Zamonaviy dunyoda arxivlar va ularning ahamiyati. “Jahon arxivlari tarixi va zamonaviy arxivshunoslik” fanining maqsad va vazifalari. Xorijiy arxivlar tarixining tarixshunosligi va manbashunosligi. Hozirgi zamon asosiy arxivlarida O'zbekiston tarixiga oid hujjatlar. Fanning boshqa ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy fanlar bilan aloqadorligi, dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Birgalikda o'rganamiz”, “O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”*

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Arxiv, arxivshunoslik, hujjat, materiallar, pergament, YuNESKO, Xalqaro Arxiv Kengashi, Bosh Arxiv boshqarmasi.

### **Nazorat savollari:**

1. Arxivshunoslik fani qachon va nima sababdan paydo bo'ldi?
2. Arxivshunoslik fanining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Arxivshunoslik qanday asosiy tarkibiy qismlarga bo'linadi?
4. Arxivshunoslik nazariyasi va uslubiyotining o'rganish ob'yekti nima?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1997.
2. Бржовстовская Н. В. Архивное дело в странах Европы и Америки в период капитализма. Т-1-2. – М., 1957.
3. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
4. Иофе В. Г. Всеобщая история архивов и ведущие архивы современного мира. – Т., 2009.
5. Карапетянц И. В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века – М., 1997.
6. Чориев Ш. Ш. Архивларнинг умумий тарихи ва ҳозирги замоннинг етакчи архивлари. – Тошкент, 2010.

### **2- mavzu: Qadimgi dunyo mamlakatlarida hujjat yuritish tizimining shakllanishi.**

#### **Reja:**

1. Ilk arxivlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning o'rni va ahamiyati
2. Qadimgi davr arxivlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari
3. Jahon mamlakatlarida hujjat yuritish tizimining shakllanishi

**Darsning maqsadi:** Talabalarda kishilik tarixining qadimgi davrini ўрганишда архивларнинг тутган ўрни бўйича қўникма ҳосил қилиш.

**E'tibor bering.** Ilk arxivlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, ularning o'rni va ahamiyati. Qadimgi davr arxivlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Hujjat tushunchasi. Ilk hujjat turlari. Sud bayonnomalari va shartnomalar ilk hujjat turlari sifatida. Ilk hujjat turlarining klassifikatsiyasi. Xo'jalik shartnomalarining ilk ko'rinishlari. Jahon mamlakatlarida hujjat yuritish tizimining shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Ilk hujjat turlarining saqlanish qonuniyatlari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat”, “Klaster”.*

**Tayanch so'z va iboralar:**

Qadimgi dunyo mamlakatlari, hujjat yuritish tizimi, Senat, Saturn ibodatxonas Metron arxivi.

**Nazorat savollari.**

1. Dunyo tarixidagi ilk yuridik hujjatni toping?
2. Ilk arxivlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi nima bilan bog'liq bo'lgan?
3. “Ipuser so'zlari” nima?
4. Sud bayonnomalarining turlari haqida ma'lumot bering?

**Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик: Ўқув қўлланма. Тошкент, 1997.
2. Бржовстовская Н. В. Архивное дело в странах Европы и Америки в период капитализма Т-1-2. – М., 1957.
3. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
4. Иофе В. Г. Всеобщая история архивов и ведущие архивы современного мира. – Т., 2009.
5. Авдиев А. Қадимги Шарқ тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
6. Муҳамедов М. Хорижий мамлакатларнинг давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Тошкент: Адолат, 2003.

**3- mavzu: Qadimgi dunyoning xo'jalik arxivlari.**

**Reja:**

1. Xo'jalik yozma manbalarini saroy omborxonalarida saqlanish tartiblari.
2. Soliq hujjatlari – arxiv manbasi sifatida.
3. Savdo-sotiq hujjatlari.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda dunyo tarixidagi ilk xo'jalik turlariga oid arxiv manbalarini o'rganish bo'yicha tushuncha va ko'nikmalar hosil qilish, xo'jalik arxivlarining dastlabki ko'rinishlari haqida ma'lumot berishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Xo'jalik yozma manbalarini saroy omborxonalari va saqlovxonalarida mujassamlashgan diplomatik yozishmalar. Insoniyat tarixida yozuv eng qadimgi jamiyatda bundan 3,5–4 ming yil oldin janubiy Mesopotamiya-da vujudga kelganligi. Yozuvning vujudga kelishi o'sha davr uchun, davlatlar, xalqlar taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qilganligi, bugungi tariximizni o'rganishda qadimgi yozma manbalar muhim ahamiyat kasb etishi. Jahon tarixidagi dastlabki o'ziga xos arxivlar albatta yozuv rivojlangandan keyin, asosan hukmdorlarning saroylarida to'planishi asosan davlat boshqaruviga oid hujjatlar bo'lishi. Yuqori Zarafshondagi Qal'ai Mug'dan topilgan so'g'd yozuvidagi hujjatlarning topilishi.

So'g'd tilidagi yozuvlar asosan IV–X asrlarga oid bo'lib, turli mazmundagi yuridik hujjatlar (ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotti hujjatlari, tilxatlar), hukmdorlar (So'g'd, Turk va Farg'ona hukmdorlari) o'rtasidagi yozishmalar, xo'jalikning kundalik turmushiga oid hujjatlar, masalan, xarajatlardan iborat hujjatlar hamda farmonlardan iborat ekanligi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”.*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Savdo-sotiq, xo'jalik munosabatlari, soliq tizimi, harbiylar, yer egaligi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Savdo-sotiq hujjatlariga nimalar kiradi?
2. Xo'jalik yozma manbalarini saroy omborxonalarida saqlanish tartiblari qanday edi?
3. Dunyodagi ilk xo'jalik shartnomasi haqida ma'lumot bering.

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**



1. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1997.
2. Авдиев А. Қадимги Шарқ тарихи. – Тошкент, 1973.
3. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
4. Бойназаров Ф. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент, 2004.
5. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

#### **4- mavzu: Qadimgi dunyodagi ilk arxiv-kutubxonalar.**

##### **Reja:**

1. Kutubxona-arxivlarning paydo bo'lishi.
2. Hukmdor sarfilaridagi kutubxona arxivlarning boshqaruv shakllari.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda dunyo tarixidagi ilk arxiv kutubxonalar to'g'risida tushuncha hosil qilish, ilk arxivlarda hukmdorlar shaxsiga oid ma'lumotlarning to'planish jarayonlari haqida yangi bilimlar hosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor berish:** İlk qadimgi kutubxona arxivlari Qadimgi Sharq va ikki daryo oralig'i davlatlarida paydo bo'lishi. Fir'avnlari va shohlar kutubxona-arxivlari, Ossuriya shohi Ashshurbanipal kutubxona-arxividan 20 mingdan ortiq loy taxtachalarga yozilgan hujjatlar topilishi. Rimda er. avv. I asrga kelib ko'pgina shaharlarida kutubxona-arxivlari paydo bo'lishi. Xitoyda er. avv. bir necha yuz yilliklar davomida, Yaponiyada eramizning birinchi yuz yilligida shoh saroylari qoshida va ibodatxonalarda kutubxona arxivlari mavjud bo'lganligi. Bundan tashqari, arxeolog olimlar tomonidan ko'pgina qadimiy davrlarga tegishli arxiv qoldiqlari topilgan. Ular Bogazgeys, Quyundjiq, Tel-el-Amarn, Nineveya, Kultepa arxivlaridir.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum, Klaster”*.

##### **Tayanch so'z va iboralar:**

Arxiv, kutubxona, davlat, muassasa, saroy, ibodatxona, hukmdor.

##### **Nazorat savollari:**

1. Dunyodagi ilk arxiv-kutubxona qachon va qaerda ochilgan edi?
2. Bogazkeys arxivi qaerdan topilgan?
3. Troya arxivi haqida ma'lumot bering?

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1997.
2. Авдиев А. Қадимги Шарқ тарихи. – Тошкент, 1973.
3. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
4. Мухамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 236 б.
5. Долгих М. Теория и практика архивного дела. – М., 1990.

#### **5-мавзу: Qadimgi Misrda arxiv ishi.**

##### **Reja:**

1. Qadimgi Misrda arxiv ishining ilk ko'rinishlari.
2. Tel-Amarna arxivi. Fir'avn arxilari.
3. Qadimgi Misr Klinopis arxivi.
4. Qadimgi Misr arxividagi diplomatik yozishmalar.

**Darsning maqsadi:** Talabalarga Qadimgi Misr tarixi haqida kengroq ma'lumot berish, shuningdek, ushbu davlat tarixiga oid arxiv manbalarini mufassal o'rganishga doir yangi bilimlar hosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Qadimgi Misr tarixi turli xil manbalar orqali o'rganish mumkinligi. Bu manbalarining yetti turga bo'lish mumkinligi. Yozma manbalar, tarixiy asarlar, badiiy adabiy, ilmiy, diniy matnlar, hujjat va yo'riqnomalar. Moddiy madaniyat yodgorliklari: shahar, qal'a, ibodatxona, sog'ona, uylar, sopol idishlar, haykallar. Xalq og'zaki ijodiyoti: qo'shiq, ertak, maqollar, afsona, axloqiy-etik asarlar. Tilshunoslik ma'lumotlari. Etnografiya ma'lumotlari. Antropologiya ma'lumotlari: mumiyo, skelet, freska, relyeflarda odamlarni

jismoniy tuzilishini o'rganish mumkin bo'lgan tasvirlar. Geografik muhit va landshaft, kanallar, yo'llar. Ertaklar: «Ikki aka-uka to'g'risida», «To'g'ri va egri» haqida «Kemada halokatga uchraganlar» ertagi, «Unu Amonning Biblga sayohati» (Er.avv. XI asr kabilar). Diniy ruhdagi asarlar: V–VIII sulola fir'avnlari piramidalari ichki devorlarida iyerogliflar bilan tasvirlangan yodgorliklar bo'lib, ular «Piramida matnlari» deb ataladi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Klaster”, “Birgalikda o'rganamiz”.*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Nil, Yegipet, Memfis, Xetxa-Ptax, Fiva, Sinay yarim oroli, Saxara, er. avv. IV ming yillik, Shampol'on, iyeroglif, Palermo toshi, Amon va Ra ibodatxonalari, Tutmos III annallari, Manefon, Neferekara, El-Amarna, Axtoy nasihatnomasi, Ipuser so'zlari, Sinuxet hikoyalari, Piramida matnlari, sarkofaglar matnlari, «Memfis ilohiyotshunoslik traktati», Gerodot, Diodor, Plutarx, «Osiris», «Isida», «Misr tasviri», Misr xronologiyasi, O.Mariyett, Maspero, «Vilbur papirusi», «Misr tarixi», Fayum vodiysi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Misr tarixi nechta bosqichga bo'lib o'rganiladi?
2. Tel-Amarna arxivi qaysi davrga oid?
3. Sarkofag nima?
4. “Vilbur papirusi” haqida ma'lumot bering?

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 2004.
2. Дьяконова А. История древнего востока. – М., 1988.
3. Замаровский В. Их величества пирамиды. – М., 1982.
4. Картелл Л. Во времени фараонов. – М., 1982.
5. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 1973.
6. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 236 б.

## **6-mavzy: Qadimgi Mesopotamiyada arxiv ishi.**

### **Reja:**

1. Kutubxona-arxivlar.
2. Shumer, Akkad, Bobil, Elam, Xett arxivi.
3. Finikiya, Urartu Klinopis arxivlari.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda Qadimgi Ikki daryo oralig'i hududida yashagan xalqlar va hukmronlik qilgan turli davlatlar tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Mavzu tarixshunosligi. Eng qadimgi hujjatlar (er.avv. III ming yillik boshlari) Uruk va Jamdat-Nasrdan topilgan mingga yaqin loy taxtachalar ekanligi. Ular piktografik belgilar bilan yozilib hali oxirigacha o'qilmaganligi. Lagashdan er.avv. III ming yillikka oid xo'jalik hujjatlari topilganligi. Ayniqsa, er.avv. II ming yillikka oid ko'pgina xo'jalik hujjatlari saqlanib qolgan, ular davlat arxivlari, ibodatxona va xususiy arxivlarda saqlanib qolganligi. Hozirgi Turkiya hududidagi Qultepadan er.avv. II ming yillikka oid Osuriya va amoriy savdogarlariga tegishli qarz, tilxat va sud qarorlari aks etgan 10.000 ta loy taxtachalardan iborat arxiv; er. avv. II ming yillikka oid qadimgi Arrapxadan topilgan 4000 loy taxtacha; er. avv. XII-XI asrlarga oid Ashshur shahri arxivi, er. avv. I ming yillikka oid Nippur, Bobil, Borsippa, Ur va Uruk shaharlari kesishmalarida topilgan arxivlar, ayniqsa, Nippurda «Murashu uyi»dan topilgan er.avv. V asrga oid 700 hujjat diqqatga sazovor ekanligi.

Huquqiy hujatlardan bizgacha yetib kelgan yodgorliklarning ko'pchiligi Mesopotamiyadan topilganligi. Ulardan eng qadimgisi podsho Shul'ga qonunlari, (er. avv. III ming yillikning oxiri), er. avv. XX asrga oid Eshnunna qonunlari, undan kirish va 59 modda saqlanib qolgan; er.avv. II ming yillik boshlariga tegishli Larsa va Issin qonunlari parchalari bizgacha yetib kelganligi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Klaster”, “Birgalikda o'rganamiz”.*

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Frot, Dajla, fauna, El-Ubayd, Shumer, Akkad, Semit, Amoriy, Diyali, Urmiya, gutiy, kassit, xurrit, Bobil, oromiy, Ered, Uruk, Lagash, Nippur, Eshnunna, Mari, Ashshur, Nineviya, Murashu uyi, Shulga, Lipit-Ishtar, Hammurapi, Tell-Amarna, Umma, Rimush, «Kalxatlar stelasi», Urukagina, Eannatum, Elam, Sargon II, Beroyes, «Bobil va Xaldey tarixi», «Gilgamesh va Aga», Gerodot, Ktesiy, Ksenofont, «Anabasis», Strabon, Persepol, Grotofend, G.Roulingson, Hamadon, Kunjik, Xorsabod, Dur-Sharrukin, Luvr, G. A. Leyyard, Nimrud, K. Bekold, B. Maysner, A. Oppenxeym.

### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Mesopotamiya hududi hozirgi qaysi davlat territoriyasiga to'g'ri keladi?
2. Qadimgi Mesopotamiya hududida mavjud bo'lgan ilk yozuv turlari haqida ma'lumot bering?
3. Qadimgi Mesopotamiya tarixiga oid eng qadimgi arxiv manbasi haqida ma'lumot bering?
4. Qadimgi Mesopotamiya tarixiga oid huquqiy manbalar boshqa davlatdagi shu turdagi manbalardan nimasi bilan farqlanadi?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 2004.
2. История древнего востока. Под. ред. А. Дьяконова. – М., 1988.
3. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. – Тошкент: Адолат, 2003.
4. Картелл Л. Во времени фараонов. – М., 1982.
5. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 1973.
6. Муҳамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 236 б.

### **7- mavzu: Qadimgi Ossuriyada arxiv ishi.**

#### **Reja:**

1. Qadimgi Ossuriyada arxiv ishining ilk ko'rinishlari.
2. Qadimgi Ossuriya arxividagi diplomatik yozishmalar.
3. Harbiy yozishmalar.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda qadimgi Ossuriya davlati tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Mesopotamiyadagi arxeologik qazishmalar XIX asr o'rtalarida shimolda: dastlab qadimgi topilmalar bilan qiziqadigan ishqiboz kishilar tomonidan, keyinchalik mutaxassis-arxeologlar amalga oshirdilar. Ikki daryo oralig'idagi birinchi shaharlar qachonlardir Osuriya davlati mavjud bo'lgan shimolda paydo bo'lganligi. 1842 yilda fransuz diplomati E. P. Botta mahalliy afsonalarda Osuriyaning qadimgi poytaxti bilan bog'liq bo'lgan Kunjik tepaligini (Turkiya) qazilishi. 1846–1847-yillarda ingliz diplomati G. A. Leyyard Nimrud tepaligini qazilib, qadimiy Ossuriyaning Kalxu shahri qoldiqlariniyu ochilishi. Tepalikdan podsho saroylari, odam-ho'kiz, odam-sher haykallari va badiiy rel'yeflar topilishi. 184-yillf Quyunjiq tepaligida Leyyard Nineviya xarobalarini, jumladan, podsho Sinaxreb (er. avv. VII asr) saroyi, uning nevarasi Ashshurbanipalning kutubxonasini topilishi.

Leyyardning xodimi U. Rassam Kunjik tepaligidagi qazishmalarni davom ettirishi, podsho Ashshurbanipalning va harbiy manzaralar tasvirlangan ajoyib rel'yeflar bilan bezatilgan saroyi va podshoning boy kutubxonasiniyu ochilishi. Nimrud tepaligi yaqinidagi Balavat nomli joyda eramizdan avvalgi IX asrga oid yodgorliklar, jumladan, harbiy yurish va xiroj to'lash manzarasi tasvirlangan Balavat darvozalari deb atalgan 4 ta jez taxtaning topilishi.

Fransuz arxeologi V. Andre 1803–1914 yillarda Osuriyaning qadimiy poytaxti Nineviyada podsho Ashshurbanipalning saroylari, ibodatxonalar qoldiqlari ni, jumladan oliy xudo Ashshur ibodatxonasi, podsho qabrlari turar joy binolari va ko'chalarini qazib ochilishi. XX asrning 50–60- yillarida arxeologlar Nineviya shahri xarobalaridan saroy, xo'jalik inshootlari, ko'pgina hujjatlarini

topdilar. Ossuriyashu- noslikning yuz yillik tarixi davomida davomida siyosiy tarix va davlat qurilishi muammolarining o'rganilishi.

Ossurshunoslik markazlari dastlab Angliya va Fransiyada, XX asr boshlaridan Germaniya bo'lishi. Fashistik tuzum sharoitida ko'pgina ossurshunos olimlar AQShga ko'chib ketishi. Angliya, Fransiya va Germaniyada ham ossurshunoslik maktablari ilmiy tadqiqotlarni olib borilishi.

Nineveya arxivi – Qadimgi Osuriya davlatining shaharlaridan biri bo'lib, hozirgi Iroq davlatining Mosul shahrida joylashganligi. Nineviya shahri er.avv. VIII–VII asrlarda Ossuriya poytaxtiga aylantirilganligi. Nineviya shahrining shimoliy qismida Ashurbanipal Sinaxereb saroyining janubiy-g'arbiy qismi joylashganligi. Bu yerdan Ashurbanipal arxivi va 20 mingta kitob ya'ni loy taxtali yozuvlar topilganligi. Nineviya janubiy qismida Imtor, Emishmish ibodatxonalari va Asarxaddan saroyi joylashganligi.

Er.avv. 612 yilda Nineviya shahri yangi Vavilon shoxi Nabapalasar va Midiya shoxi Kiaksarlar tomonidan yer yuzasidan yo'q qilib tashlanganligi. Rimliklar shahar o'rnida harbiy kolonna tashkil etganligi. Nineviya shahri haqidagi ma'lumotlar Kuyunjiq shahri qoldiqlaridan ko'pgina ma'lumotlar topilganligi. Kul-tepa-Old Osiyo xududlarida qadimgi davrga tegishli ko'pgina tepaliklar bu nom bilan ataladi. Ushbu tepaliklarning ko'pi eneolit va bronza davrlariga tegishli. Kavkaz orti xududlarida bir nechta tepaliklar aniqlanganligi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Klaster”, “Birgalikda o'rganamiz*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Ossuriya, Kul-tepa arxivi, Nineviya arxivi, Ashshurbanipal kutubxonasi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Ossuriya shaharlari tarixiga oid manbalarni sanang?
2. Nineviya arxivi to'g'risida ma'lumot bering?
3. Kul-tepa arxivida nechta fond mavjud bo'lgan?

### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 2004.
2. История древнего востока. Под. ред. А. Дьяконова. – М., 1988.
3. Авдиев А. Қадимги Шарқ тарихи. – Тошкент, 1973.
4. Берлов О. Д. Общественные отношения в Египте эпохи Среднего царства. – М., 1978.
5. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 1973.
6. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 236 б.

### **8- mavzu: Qadimgi Bobilda arxiv ishi.**

#### **Reja:**

1. Qadimgi Bobilda arxiv ishining asosiy hujjatlari.
2. Quyunjiq arxivi.
3. Kohinlar arxivlari. Harbiy yozishmalar.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda qadimgi Bobil davlati tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilishni ko'zda tutadi.

**E'tibor bering:** Quyunjik arxivi – Quyunjik xarobalaridan Ossuriya poytaxti Nineviya shahri qoldiqlari topilishi va uni o'rganish ishlarining boshlanishi. XX asrning 30 yillaridagi qazishma ishlari. G. Leyard, va R. Kempbel-Tompsonlarning ilmiy izlanishlari.

Quyunjiq tepaligining pastki qatlamlari stratifikatsiyasi. Akkad davlati hukmdoriga oid topilmalar. Xarobalardan Nabu, Ishtar ibodatxonalari Sinaxreb va Ashshurbanipal saroyi qoldiqlari topilishi.

Mixxatni deshifrovkasi (o'qilishi). Mesopotamiya, Eronga birinchi ilmiy safar qilgan kishi XVII asrda daniyalik olim K.Nibur edi. U Yevropaga qadimgi Eron poytaxti Persepol saroyidan mixxat yozuvlarini olib kelinishi.



XIX asrning 90-yillarida nemis olimi F. Delich tomonidan akkad tilining grammatikasi va lug'atining yaratilishi. Shumer mixxat yozuvini o'qishning boshlanishi. F. Tyurgo-Danjan, O. Pepel, A. Daymel va A. Falkenshteynlar tadqiqotlari.

Bobil podshosi Xammurapining XX asr boshlarida kashf etilgan qonunlar to'plami va xett qonunlari. Amoriylar davrida Bobilning iqtisodiyoti, ijtimoiy-siyosiy tuzumi, Hammurapining qonunlar to'plami, uning noib va amaldorlar bilan yozishmalari, xususiy hujjatlar orqali ma'lum ekanligi.

Qonunlar to'plamining tuzilishi Hammurapining jiddiy siyosiy tadbiri edi, chunki bu to'plam Bobilning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan edi. Qonunlar to'plami kirish, qonunlar va xulosani tashkil qilgan uch qismdan iborat edi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat”, “Klaster”, “Birgalikda o'rganamiz*

**Tayanch so'z va iboralar:**

Bobil, Elam, Rimsin, Hammurapi, Ur, Mari, Samsuilin, Mari, Vardum, Redum, Kassit, mushkenum, kudurru, Elam, Navuxodonosor I, Issin, Dajla, Frot, Nabopalar, Xaldey, Esagila, Eron, Kayxusrav, Egibi, Murashu.

**Nazorat savollari:**

1. Bobil arxivi haqida ma'lumot bering?
2. Xammurappi qonunlari necha moddadan iborat?
3. Bobil arxivlardagi yozuvlar qaysi davrga tegishli?
4. Bobil arxivlari qachondan o'rganila boshlangan?
5. Bobil arxivlari asosan nimaga yozilgan?

**Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 2004.
2. История древнего востока. Под. ред. А. Дьяконова. – М., 1988.
3. Замаровский В. Их величества пирамиды. – М., 1982.

4. Берлов О. Д. Общественные отношения в Египте эпохи Среднего царства. – М., 1978.

5. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 1973.

6. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳукуки тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 236 б.

## **9- mavzu: Qadimgi Xitoyda arxiv ishi.**

### **Reja:**

1. Qadimgi Xitoyda arxiv ishining ilk ko'rinishlari.
2. Imperator arxivlari.
3. Qadimgi Xitoyda arxivdagi diplomatik yozishmalar.
4. Kohinlar arxivlari. Harbiy yozishmalar.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda qadimgi Xitoy davlati tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Qadimgi Xitoy tarixiga oid juda ko'p aniq davrlashtirilgan yozma yodgorliklar mavjudligi. Qadimgi Xitoy yilnomalari. Er. avv. VIII–V asrlar voqealari yoritilgan «Chunshu» yilnomasi. «Shan-shu» («Shishin»-qo'shiqlar kitobi) nomli kitob va boshqa qadimgi Xitoy tarixiy asarlari. Bu asarlarda hukmdorlar va ularning yaqinlarining so'zlari mavjudligi.

Eramizdan avvalgi I asrda qadimgi Xitoyda yangi tarixiy asarlar paydo bo'lishi. Sima Syanning (er. avv. 105-90 yillar) «Tarixiy yozishmalar»i. Asarda qadimgi Xitoy ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti to'g'risida boy ma'lumotlar mavjudligi. Xitoy tarixini arxeologik o'rganishda amalga oshirilishi. Arxeologik qazishmalar natijasida ilk Shan davriga oid Ermitou shahri, Chansha yaqinida boy qabrlar (er. avv. III asr) topilishi.

Ilk Xitoy yozuvining eng qadimgi yodgorliklari er. avv. XIV-XI asrlarga oid fol ko'rish yozuvlaridir. In yozuvlarining ko'pchilik qismi buyumlar tasviridir. In

belgilari buyumlar tasviri yeki murakkab tushunchalarni ifodalaydigan ko'pgina tasvirlar qo'shilmasi ideogramma ko'rinishidadir.

In belgilarining hozirgi Xitoy iyerogliflaridan farqli tomonlari. Birinchidan, har bir elementar belgi qandaydir buyumning konturini tasvirlagan, ikkinchidan bir belgilini yozilishida ko'p xilma-xillik mavjud. Uchinchidan belgini qatorning nisbiy yo'nalishiga tomon harakati hali barqaror bo'lmagan. In yozuvining er. avv. I ming yillikda Chjoular tomonidan o'zlashtirilishi, uning taraqqiyotini uzib qo'ymadi.

Arxiv-kutubxonalar yozma yodgorliklarni saqlovchi xazina sifatida juda qadimdan paydo bo'lgan. Miloddan avval VII asr o'rtalarida Sharqdagi ko'p saroylarda, qadimgi Misr va Rim ibodatxonalari qoshida kutubxonalari bo'lgan Qadimgi kutubxonalarning eng mashxuri Aleksandriya (Iskandariya) kutubxonasi hisoblangan.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazora.t*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Yanszi, Xuanxe, 5 imperator davri, Yanshao davri, Lu podsholigi, Sima Syan «Tarixiy yozishmalar»i, «Xan tarixi», Gu Garbiy xan, Ermitou manzilgoxi, In davri, Si podsholigi, Chu podsholigi, In Chjen podsholigi, Sin Shi Xuandi unvoni, Yunan Sichan, Vey, Shu, U.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Xitoy yozuvi va arxivi haqida ma'lumot bering?
2. Imperator arxivlari nechta qismdan iborat bo'lgan?
3. Xitoy ierogliflardagi yozuvlar qaysi davrga tegishli?

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 2004.
2. История древнего Востока. Под. ред. А. Дьяконова. – М., 1988.
3. Источниковедение по истории Древнего Востока. В. И. Кузищин тахрири остида. – М., 1984.

4. Свенцицкая А. Практикум по истории древнего мира. – М., 1981.
5. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 1973.
6. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 236 б.

## **10- mavzu: Qadimgi Hindistonda arxiv ishi.**

### **Reja:**

1. Qadimgi Hindistonda arxiv ishining ilk ko'rinishlari.
2. Qadimgi Hindistonda arxivdagi diplomatik yozishmalar.
3. Harbiy yozishmalar. Saroy arxivlari.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda qadimgi Hindiston davlati tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Janubiy Osiyoga xos jihat taraqqiyotning merosiyligi va davomiyligi. Qadimgi va o'rta asrlarda bu yerda keskin etnik o'zgarishlar yuz bermaganligi. Ijtimoiy munosabatlarda kasta tuzumi va madaniy an'analarning barqarorligi. Qadimgi Hindistonning ko'pgina asarlari hozirgacha hinduizm va buddizmning muqaddas kitoblari hisoblanashi. Sanskrit tilini o'rganish qadimgi til grammatik asarlariga, asosan Panini grammatikasiga (er. avv. IV asr) asoslanashi. Adabiyot asosan diniy madhiyalar (rigveda va boshqa vedalar) ritual sharxlar, nasihatlar to'plamidan iborat ekanligi.

Ijtimoiy munosabatlarni o'rganish uchun asosiy manba bo'lib, diniy-ahloqiy majburiyat-draxmalar («Manu qonunlari») siyosat san'ati to'grisidagi (Artxashastra), muhabbat to'g'risidagi (Kamasutra) maxsus traktatlar. Bu manbalarda fikrlar sxolastik, an'anaviy ruhda bayon qilinganligi. Tarixiy voqealar adabiyotda kam tilga olinishi. Yilnomalar eramizning I asrlarida Seylondagi budda monastirlarida tuzilgan va boshqa asosan budda ta'limotiga oid siyosiy-xo'jalik hujjatlari. Davlat va xususiy arxivlar yetib kelmagan. Hujjatlar palma daraxti

barglari, po'stloq yoki mato parchasi kabi murt asosda yozilgani uchun saqlanmaganligi.

Bizgacha faqat eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarga oid o'qish qiyin bo'lgan Hind sivilizatsiyasiga oid muhrlardagi qisqa yozuvlar va Ashoki davri (er. avv. III asr) yozuvlarigina yetib kelganligi.

Qadimgi Hindistonda qurilish materiali sifatida asosan yog'och ishlatilgan. Tosh va bronza haykaltaroshligi keyingi asrlardagina paydo bo'lgan. Yana shuningdek, Hind qadimiy obidalarini o'rganish asosan XX asrda boshlandi. Faqat ozgina shaharlar, Moxenjo-Daro, Xarappa katta maydonlarda qazib ochildi.

Janubiy Osiyo tarixini o'rganish XVII oxiridan aniqrog'i, 1784 yil Kalkutta-da sharqshunoslarning birlashmasi Osiyo jamiyatiga asos solinishidan boshlandi. XVIII asr oxirida sanskrit adabiyotining yodgorliklari: «Manu qonunlari», Kalidasining «Shakuntali» dramasi, falsafiy poema «Bxagavagita» tarjima qilindi.

Nemis tadqiqotchilari Hindistonda jahon madaniyatining ildizini qidirdilar. XIX asrning birinchi yarmida sanskrit tilining qadimgi fors, lotin va yunon tillari bilan qarindoshligi nazariyasi ilmiy asoslandi. XIX asrning o'rtalarida va ikkinchi yarmida hind adabiyotning yodgorliklari asosan vedalarni tarjima qilish va chop qilish yuzasidan muhim ishlar qilindi. Jumladan, Sharqning muqaddas kitoblari 50 tomli (Oksford universitetida Maks Myuller asos solgan) seriya, ko'p tomli sanskrit lug'atlari paydo bo'ldi. XIX asrning oxirida T.Ris, Devids pali tilidagi matnlarini o'rganish va chop etish jamiyatini tashkil etishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat.”*

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Oriylar, Arya'varta, Gang, Dekan, hind-Yevropa tillari, Veda davri, Budda davri, Klassik davr, Rigveda, Xarappa, «Manu konunlari», Moxinjo-Daro, Kalidasi, Bxagavagita, T. Ris, sanskrit, Chanxo-Daro, Kalibangan, Maxabxarat, Braxman, vayshi, shudra, kshatriy, varna.

### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Hindistonda ilk manbalar qachon shakllangan?

2. Hind rojalari arxivlarida qanday hujjatlar saqlangan?
3. Sanskrit yozuvi qachon paydo bo'lgan?
4. Hind arxivlari qachondan o'rganila boshlangan?

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ладынин И. А. и др. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 2004.
2. История древнего Востока. Под. ред. А. Дьяконова. – М., 1988.
3. История древнего мира: Восток, Греция, Рим. – М., 1973.
4. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 236 б.
5. История Индии. – М.: Наука, 1984.

#### **11- mavzu: Qadimgi O'rta Osiyo davlatlarida arxiv ishi.**

##### **Reja:**

1. O'rta Osiyo davlatlarida arxiv ishining shakllanishi.
2. Qadimgi Xorazm arxivi.
3. Qadimgi So'g'diyona arxivi.
4. Qadimgi Kushon imperuyasi arxivi.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda O'rta Osiyoning qadimgi davlatlari (Marg'iyona, Parfiya, So'g'diyona va Xorazm hamda Kushon) tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** O'rta Osiyoda qadimgi zamonlardan buyon arxivlar mavjud bo'lgan. O'rta Osiyoda qadimgi arxivlarning paydo bo'lishi bu yerda ilk davlatlarning vujudga kelishi hamda yozuvning tarqalishi bilan bog'liqdir. O'rta Osiyoda xo'jalikning rivojlanib borishi, davlatchilining shakllanishi natijasi o'laroq turli xo'jalik, soliq va yuridik hujjatlarning yaratila boshlandi. Ayni paytda bu hujjatlari ma'lum muddat davomida yoki doimiy ravishda saqlashga ehtiyoj

tug'ildi. Natijada hujjatlarni saqlashga mutassadi bo'lgan shaxslar va muassasalar paydo bo'lishi.

Arxivlarda saqlangan hujjatlar zamonlar o'tishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Agar dastlab arxiv hujjatlar bevosita xo'jalik va ijtimoiy hayotni yo'lga solish uchun xizmat vilgan bo'lsa, keyinchalik ular tarixiy jarayonni o'rganish uchun yozma manbalar sifatida muhim ahamiyat kasb etdi.

O'rta Osiyo hududida ilk arxiv muassasalarining paydo bo'lishi. Arxiv atamasi. Arxiv muassasalarining xususiyatlari. Ilk yozma hujjatli manbalar guruhi. Qadimgi Nisadagi Parfiya arxivi. Qadimgi Xorazmdagi Tuproqqal'a arxivi. Qadimgi Sug'd yozuvlari. Devashtich arxivi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat.”*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

O'rta Osiyo, manbalar, Divashtich arxivi, qadimgi So'g'diyona davlati, pergament, qadimgi Xorazm davlati, Kushon imperiyasi, Marg'iyona, yozuvlar, mixxat.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi O'rta Osiyo hududidagi eng qadimgi yozuv turlari haqida ma'lumot bering?
2. Qadimgi So'g'diyona tarixiga qaysi arxiv manbalarini bilasiz?
3. Kushon yozuvining tarqalish sabablari nimada?
4. Marg'iyona arxivi haqida ma'lumot bering?

#### **Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Алимов И., Эргашев Ф., Бўтаев А. Архившунослик: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1997.
2. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Тошкент, 1996.
3. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент, 2003.
4. Авдиев А. Қадимги Шарқ тарихи. – Тошкент, 1973.

5. Теория и практика архивного дела в СССР / Под ред. Ф. И. Долгих и И. К. Руделсон. – Москва, 1980.

## **12- mavzu: Qadimgi Rimda ilk arxivlarning shakllanishi.**

### **Reja:**

1. Qadimgi Rim tarixi manbalari va arxiv ishining shakllanishi.
2. Qadimgi Rim arxivlarida boshqaruv shakllari.
3. Senat arxivi. Rim imperiyasi arxivlari.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda ongida qadimgi Rim tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Qadimgi Rim tarixini an'anaviy xronologik chegarasi Rim shahrini barpo qilinishi 754–753 yillardan boshlanib, G'arbiy Rim imperiyasining qulashi 476 yil bilan tugallanishi. Rim tarixini o'rganishda turli xil manbalar: Rim va Yunon tarixchilarining asarlari, tabiiy, ilmiy va badiiy adabiyot, huquqiy yodgorliklar, arxeologiya, epigrafika, numizmatika va papirologiya ma'lumotlaridan foydalanilishi.

Qadimgi Rim tarixi bo'yicha moddiy manbalar xilma-xilligi. Italiyaning paleolit va neolit davridan dalolat beradigan tosh qurollar, sopol idishlar, qoyatosh tasvirlari mavjudligi. Shimoliy va o'rta Italiyada etrusk madaniyatiga tegishli bo'lgan sag'analar, uy-joy ibodatxona qoldiqlari topilganligi. Rim shahrining o'zida palatin, eskvinlin va boshqa tepaliklarda hamda forumda ko'p sonli qabrlar, ibodatxona poydevorlari, ona bo'rining jez haykali, Serviy tulliy davridagi shahar devori qoldiqlari qazib ochilganligi. Italiyaning boshqa shaharlarida ko'p sonli arxeologik yodgorliklar mavjudligi.

Moddiy madaniyat yodgorliklarida ba'zida yozuvlar ko'p bo'lganligi. Qazib ochilgan inshootlardan etrusk, latin, yunon yozuvlari topilgan. Bu yozuvlar bino devorlari, sopol idishlarda va toshlarga bitilganligi. Rim tarixi bo'yicha eng qimmatli manbalardan biri bu yozma adabiyotdir. Er. avv. III asrdan boshlanib



Rim xalqaro siyosatda yetakchi rol o'ynashi bilan uning tarixi to'g'risida boy ma'lumotlar to'plana boshlanishi.

Er. avv. II asrda Polibiy kabi yunon yozuvchilarining asarlari Rim tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Rimdagi fuqarolar urushi davri Gay Sallyustiy Krispning tarixiy monografiyalarida aks etishi. Rim respublikasini so'ngi davridagi yirik siyosiy arboblari Tsitseron va Tsezarning asarlari, ilk imperiya davrida Tit Liviyning Rim tarixi, eramizning I asrida Velley Patirkulning ham shu nomdagi asarlari yaratildi. Liviyning tarixida Rimning ichki va tashqi siyosati, diniy hayoti to'g'risida boy ma'lumotlar berilganligi. Velley Patirkulning ikki jildli asarida Rim butun dunyo tarixi markazi sifatida tasvirlanganligi.

Er. avv. I asr so'ngida Rimda yashagan yunon galikarnaslik Dionisiyning "Rim qadimiyatlari" nomli 20 kitobida Rimning ilk etnik, ijtimoiy-siyosiy, madaniy tarixi batafsil tasvirlanadi. Bu kitoblardan 9 tasi to'la saqlanib qolgan bo'lib, er. avv. 442-yilgacha bo'lgan voqealar bayon qilinishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing".*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

300 urug', 3000 familiya, Forum Romanum, "To'rt kvartalli" shahar, Serviy Tulliy, Kapitoliy, Aventin, "Populyus Romanus", saylov, "pater families", patrisiy, plebey, "Vikus tuskuss", Vervaktor, Vedator, Obarator, Saterkuliniy, Saturn, Semon, Segitiya, Lara, Penat, Yanus, avgurlar.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Rim davlatiga qachon asos solingan?
2. Metron arxivi qaysi davrga oid?
3. Qadimgi Rim arxivlarida hujjatlar qay tartibda saqlangan?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Бойназаров Ф. А. Кадимги дунё тарихи. – Тошкент, 2004.
2. Хрестоматия по истории Древнего Рима. – М., 1962.
3. Веллей Патеркул. Римская история // Вестник древней истории. – 1983. – № 4; 1984. – № 1–4.

4. Немировский А. И., Дашкова М. Ф. Луций Анней Флор – историк Древнего Рима. – Воронеж, 1977.

5. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 236 б.

6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 8-том. – Тошкент, 2005.

### **13- mavzu: Qadimgi Rimda Respublika arxivlari.**

#### **Reja:**

1. Qadimgi Rimda Respublika tuzumining shakllanishi.
2. Respublika arxivlari. Imperator arxivlari.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda ongida qadimgi Rim tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Rimda respublika tuzumining boshlanishini. Tarkviniy Mag'urning Rimdan haydalishi. Respublika tuzumi o'rnatilishi bilan oliy hokimiyat bir yil muddatga saylanadigan ikki konsul qo'liga o'tishi. Dastlab ular pretor (oldinda yuruvchilar) deb atalishi. Konsullarni senturiy yig'inlarda patritsiylar ichidan saylanishi. Konsullar roziligisiz senat komissiyalari to'plana olmasligi. O'zlari esa o'z majburiyat vazifalarini bajarish davrida har qanday sud javobgarligidan ozod edilar. Konsullar hokimiyati faqat biri ikkinchisini qaroriga veto (ta'qiq) qo'yishi bilangina cheklangan edi. Amaliy hayotda esa konsullar patritsiylar va ularning oliy organi senatning siyosiy manfaatlari bilan hisoblashishga majbur edilar. Dastlabki kunlardan qonun konsullardan tashqari shahar ishlarida kvestorlar muhim o'rin tutdilar. Ular sudda ishtirok etar, xazinani boshqarishda qatnashar edilar. Ilk davrda ular konsullarning yordamchilari edi. Er. avv. V asr o'rtalaridan boshlab kvestorlarni komissiyalarda saylaydigan bo'ldilar. Shu vaqtdan boshlab kvestorlar mustaqil bo'ldilar. Ular davlatning moliyaviy ishlari bilan shug'ullanar edilar. Kvestorlar arxivni boshqardilar, harbiy yurishlar davrida konsullarga hamroxlilik qilib qo'shin xazinasini boshqarilishi.

Er.avv. 507 yilda Rim tarixida ilk bor favqulodda vakolatlar berilgan mansabdor shaxs – diktator saylanishi. Diktatorni rimliklar favqulodda xavf tug'ilib qolgan paytda yoki o'ta xavfli vaziyat tug'ilgan paytda yagona boshliqqa ehtiyoj tug'ilgandagina saylar edilar. Diktatorni rasman konsullar amalda esa senat saylar edi. Diktator hokimiyati cheklanmagan edi. Unga konsullar kabi 12 liktor emas balki 24 liktor hamrohlik qilishi.

Rim respublikasi aristokratik xarakterda ekanligi. Qonunchilik tashabbusiga ega bo'lmagan tsenturiy yig'ilishlarini, jamiyatni patritsiy qatlamlarini vakili bo'lgan konsul chaqirishi mumkinligi. Bu komisiyalarni biror bir qarorini “patres” – senat tomonidan tasdiqlanmasa kuchga kirmasligi. Er.avv. 471 yildan kuriya va tsenturiya yig'inlari namunasidagi plebey yig'inlari chaqirila boshlandi. Plebey yig'inlarida qabul qilingan qarorlar “plebitsit” faqat plebeylar uchun majburiy edi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Birgalikda o'rganamiz”, “O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”.*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

“Patres” – senat, okkupatsiya, setsessiya, ekvlar, xalq tribunlari, XII jadval qonunlari, patriarxal, tsenzor, Sekst Lateran, nobil, pretor, poletar, senonlar yo'l boshchi Brenn, sine suffragio, (“tsives sine suffragio”), ozod qo'yilgan qullar, “sotsii”, “Tsvitates federat”.

#### **Nazorat savollari:**

1. Rimda Respublika tuzumining muhim belgilarini sanang?
2. Respublika arxivlarining imperiya arxivlaridan qanday farqi bor?
3. Respublika arxivlarida qanday hujjatlar saqlangan?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Бойназаров Ф. А. Кадимги дунё тарихи. – Тошкент, 2004.
2. Аппиан. Гражданские войны. – Л., 1935.
3. Утченко С. Л. Кризис и падение Римской республики. – М., 1965.
4. Утченко С. Л. Политические учения Древнего Рима. – М., 1977.
5. Штаерман Е. М. Проблема падения Римской республики в советской историографии // Вопросы истории. – 1966. – № 3.

## **14- mavzu: Qadimgi Gretsiya arxivlari.**

### **Reja:**

1. Qadimgi Gretsiyada arxiv ishining shakllanishi.
2. Qadimgi Gretsiya polislari arxivlari.
3. Metron arxivi.

**Darsning maqsadi:** Talabalarda ongida qadimgi Gretsiya tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Qadimgi Yunoniston tarixiga oid manbalar ko'pligi va yaxshi saqlanib qolganligi bilan boshqa hududlar tarixidan farq qilishi. Yunoniston tarixi manbashunosligida qadimgi tarixchilarning asarlari muhim o'rin tutishi. Er. avv. VI–V asrlarda tarix fani gullab yashnashi. “Aholida polislari tarixi”. Gerodot, Fukidid va Ksenofont.

Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa yurishlaridan so'ng Yunoniston tarixida yangi tarix maktabi – Arastu maktabi shakllanishi. Arastuning “Politiya” asari. Yunon polislari, O'rta Yer dengizi qirg'oqlaridagi yunon koloniyalari haqida muhim manbalar. “Afina politsiyasi”.

Ellin davriga kelib yunon jamiyatidagi keskin o'zgarishlar, katta davlatlarning vujudga kelishi. Timeyning asarida Bolqon Yunonistoni, g'arbiy yunon mustamlakalari haqida muhim ma'lumotlar berilishi.

Qadimgi yunon tarixi bo'yicha eng muhim manbalardan biri arxeologik topilmalar hisoblanadi. Arxeologlar Bolqon Yunonistoni va Egey dengizi orollaridagi qadimgi ibodatxonalar, saroylar, mudofaa inshootlarini qazib ochdilar. Ayniqsa, Krit orolida ingliz arxeologi E. Evans 40 yildan ko'proq vaqt Knoss saroyini qazib ochdi. Kichik Osiyoda nemis arxeologi G. Shlimanning Troya xarobalarini qazib ochishi qimmatli ma'lumotlarni berdi.

Me'muar asarlar. Polislarning yemirilishigacha yunonlar tarix va adabiyotga oid asarlarni me'muar shaklda yozishgan. Er. avv. IV asrdagi eng yirik me'muar asar Ksenofontga tegishli. U asosan harbiy sohaga oid ma'lumotlarni beradi.

Ellinizm davrida me'muar va avtobiografik asarlar yozish odat tusiga kirdi. Ellin davri siyosatchilaridan Pirra va Arata eng yirik tarixiy asarlar mualliflari hisoblanadilar. Ular "Axey ittifoqi" haqida keng ma'lumotlarni yozib qoldirishgan.

Xatlar. Antik jamiyatda xatlar muhim o'rin tutgan. Ular ikki xil shaklda ochiq va yopiq shaklda yozilgan. Platon, Isokrat va Sallyustiylar yozgan ochiq xatlarida falsafiy muammolar haqida fikr yuritilgan. Yopiq xatlar davlat ahamiyatiga molik xatlar bo'lib, maxsus kishilar nomidan yozilganligi. Ularda asosan siyosiy va maxfiy ma'lumotlar yozilganligi.

Yunon tarixiy manbashunosligiga shahar qoldiqlari muhim o'rin tutadi. Shaharlardagi saroylar, ibodatxonalar yaxshi saqlanganligi. Krit-Miken davri saroylari, inshootlari juda ko'plab topilgan. Yunon me'morchigining asosiy yodgorliklaridan bu Palestlar va Gimnasiylardir. Palestlar – bu sport inshootlari jumlasiga kirib, u yerda asosan yosh bolalar muntazam sport bilan shug'ullanganligi. Gimnasiy – sport inshooti bo'lib, bu yerda asosan kattalar sport va fan bilan shug'ullanganlar. Bizgacha Afinaning ikki katta gimnasiyasi saqlanib qolgan. Ulardan biri qahramon Akadem bog'ida joylashgan, ikkinchisi likeylik Appolon dala hovlisida joylashganligi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster".*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Fessaliya, Mali, Pagasey, Sperxa, Etoliya, Axeya, Xaon, Moloss, oresta, Dorida, Elida, Olimpiya, Lavrion konlari, antik mualliflar, Timey ochiq-yopiq xatlar, Gomer, gimnasiy, palestra, Pirey porti, ostrakon.

#### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Yunoniston tarixi nechta davrga bo'lib o'rganiladi?
2. Yunonistonda ilk arxivlar qachon shakllangan?
3. Yunon arxivlarida qanday hujjatlar shakllangan?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Бойназаров Ф. А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент, 2004.
2. Практикум по истории древнего мира. – М., 1981. Вып. 2.
3. Неронова В. Д. Введение в историю древнего мира. Учебное пособие. – Пермь, 1973.
4. Историография античной истории. – М., 1980.
5. Тюменев А. И. Передний восток и античность // Вопросы истории. – 1957. – №6–9.

### **15- mavzu: Qadimgi Spartada arxiv ishi.**

#### **Reja:**

1. Qadimgi Spartada arxiv ishining shakllanishi.
2. Qadimgi Spartada harbiy arxivlar.
3. Harbiy yozishmalar.

**Darsning maqsadi:** Qadimgi Sparta tarixini davrlashtirish mohiyatini tushuntirish, talabalarda ongida qadimgi Sparta tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Qadimgi Sparta arxaik va klassik davrlarda Yunonistonning eng katta polislaridan biri edi. Sparta polisi va davlatchiligini boshlanishi doriylar bosqinini tugallanish vaqtiha to'g'ri keladi. Doriy qabilalari er. avv. XII-XI asrlarda Peloponnes hududiga o'rnashdilar va er. avv. XI-VIII asrlarning birinchi yarmi davomida mahalliy qabilalar bilan hukmronlik uchun uzoq kurash olib bordilar. Er. avv. X asrda Peloponnes janubidagi Lakonikada Yevrot daryo vodiysining o'rta qismidagi unumdor yerlarga Sparta manzilgohi paydo bo'ldi. Qadimgi yunonlar Sparta davlatini odatda Lakedemon deb atadilar. Ko'pchilik doriylar-bo'lg'usi Sparta polisining fuqarolari 5 qishloqni birlashtirgan Sparta manzilgohiga o'rnashdilar.

Mahalliy axey aholisining bir qismi bo'ysundirilib, bir qismi qirib tashlandi. Sparta davlatining paydo bo'lishi qisqa vaqt ichida boshqa bepoyon hududlarni

bosib olish bilan belgilandi. Doriylar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning quyi bosqichida urug' munosabatlarini yemirilish davrida turar edilar. Bu hol Spartra davlatida urug'chilik tuzumi qoldiqlarini uzoq vaqt saqlanishi uchun shart-sharoit yaratdi.

Spartaliklar o'zlariga tegishli bo'lgan ekin yerlarini 9000 ta ulushga bo'ldilar. Har bir to'la huquqli spartalik shunday yer ulushini bu yerdagi bosib olingan mahalliy aholi-ilotlar oilasi bilan umrbod mulk qilib oldi. Ilotlar xo'jayinlarga hosilning yarmini berishga majbur edilar. Yuz yildan so'ng Sparta g'arbiy Messeniyaning egalladi, keyin esa sharq va shimoldagi Agros, Arkadiya viloyatlarini ham o'ziga qo'shib oldi. Arkadiyaning janubiy qismidagi bir qancha viloyatlar ham Sparta tarkibiga kirdi. Tergiya, Korinf, Sikion, Megara, Egina va Elida kabi shahar va davlatlar Sparta bilan simmaxiya-ittifoqga kirishga majbur bo'ldilar. Ittifoq majlisida har bir polis bir ovozga ega bo'lib, qaror ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinardi va har bir shahar – davlat Sparta podsholari ixtiyoriga o'zining uchdan bir qism qo'shinini berishga majbur edi. Ittifoqchilar o'rtasida aloqa zaif bo'lib, alohida polislar bir – biri bilan urush olib borar, boshqa ittifoqchilar bunga aralashmas edilar.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat”, “Klaster”.*

### **Tayanch so'z va iboralar**

Apella, buli, eklessiya, Sparta, axey, Artemida ibodatxonasi, tenglar jamiyati, ilotlar, periek, podsholar, efor, lox, Kifera, Xarond, krematsiya, fiditiya, kriptiya, xiton, gerusiya, ikki podsho.

### **Nazorat savollari:**

1. Qadimgi Sparta davlati qaysi viloyatda joylashgan edi?
2. Qadimgi Spartada nima uchun harbiy arxivlar ko'p bo'lgan?
3. Sparta arxivlarida qanday hujjatlar saqlangan?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Бойназаров Ф. А. Қадимги дунё тарихи. – Тошкент, 2004.
2. Практикум по истории древнего мира. – М., 1981. Вып. 2.

3. Неронова В. Д. Введение в историю древнего мира. Учебное пособие. – Пермь, 1973.

4. Историография античной истории. – М., 1980.

5. Тюменев А. И. Передний восток и античность // Вопросы истории. – 1957. – №6–9.

## **16- mavzu: Ilk o'rta asrlarda Yevropada arxiv ishi.**

### **Reja:**

1. Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada arxiv ishining rivojlanishi.
2. Varvar" qirollar arxivlari.
3. Monastr va yepiskop arxivlari.
4. Ilk o'rta asrlarda arxivlarni yo'q bo'lib ketishi sabablari.

**Darsning maqsadi:** Ilk o'rta asrlar Yevropa tarixini davrlashtirish mohiyatini tushuntirish, talabalarda ongida Yevropa tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropada arxiv ishining rivojlanishi. "Varvar" qirollar arxivlari. Monastr va yepiskop arxivlari. Ilk o'rta asrlarda arxivlarni yo'q bo'lib ketishi sabablari. Monastr arxivlarining rivojlanishi xususiyatlari. X–XII asrlarda shahar arxivlarining paydo bo'lishi. Qirol arxivlarining shakllanishi va ularning ahamiyati. Fransiyadagi Xartiyalar arxivi. Ispaniyada Simankas arxivining tashkil etilishi. Angliya qirollari arxivlari (Vestminster, Tauer, Kapella). O'rta asrda Angliyada arxiv ishining rivojlanishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Aqliy hujum", "O'z-o'zini nazorat", "Klaster".*

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Ilk o'rta asrlar, feodal jamiyati, yer egaligi, xristian cherkovi, G'arbiy Yevropa, ritsar, benefitsiy, allod, Sali haqiqati.

### **Nazorat savollari:**

1. G'arbiy Yevropada ilk o'rta asrlar davri qaysi asrlarga to'g'ri keladi?



2. Varvar qirolligi arxivlarida qanday hujjatlar saqlangan?
3. Pergament nima?
4. Monastr va yepiskop arxivlarining muhim xususiyati nimadan iborat?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Автократов В. Н. Общая теория архивоведения. – М., 1973.
2. Алексеев В. Судба дипломатического архива Италии в годы второй мировой войны // Новая и новейшая история. – М., 1971. – №2–3.
3. Историческая энциклопедия Т-1-17. - Т., 1976
4. Карапетянц И. В. Научно технические архивы в зарубежных странах. М., 2002. 1-2 часть.
5. Советская историческая энциклопедия. 1-17 том. – М., 1976.

#### **17- mavzu: Rivojlangan o'rta asrlarda Yevropada arxiv ishi**

##### **Reja:**

1. X-XII asrlarda shahar arxivlarining paydo bo'lishi.
2. Qirol arxivlarining shakllanishi va ularning ahamiyati.

**Darsning maqsadi:** Rivojlangan o'rta asrlar Yevropa tarixini davrlashtirish mohiyatini tushuntirish, talabalarda ongida Yevropa tarixiga oid arxiv manbalarini keng ko'lamda, kompleks o'rganish orqali ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** X–XII asrlarda shahar arxivlarining paydo bo'lishi. Qirol arxivlarining shakllanishi va ularning ahamiyati. Fransiyadagi Xartiyalar arxivi. Ispaniyada Simankas arxivining tashqil etilishi. Angliya qirollari arxivlari (Vestminster, Tauer, Kapella). Angliyada XVI asrda davlat hujjatlari arxivini tashkil etilishi. O'rta asrda Angliyada arxiv ishining rivojlanishi. Uyg'onish davrida arxiv ishi sohasida yangi davrning boshlanishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat”, “Klaster”.*

##### **Tayanch so'z va iboralar:**

Shahar arxivlari. Qirol arxivlari. Fransiyadagi Xartiyalar arxivi. Ispaniyada Simankas arxivini. Angliya qirollari arxivlari (Vestminster, Tauer, Kapella). Davlat hujjatlari. Uyg'onish davri.

**Nazorat savollari:**

1. Simankas arxivida qanday hujjatlar saqlangan?
2. Angliyada qirollar arxivi shakllanishi qaysi davrga borib taqaladi?
3. O'rta asrda Angliyada arxiv ishining rivojlanishi nima bilan bog'liq edi?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Семёнов В. Ўрта асрлар тарихи. – Тошкент, 1973.
2. Қурбонғалиева Р. Ўрта асрлар тарихидан ўқув-методик қўлланма. – Тошкент, 1991.
3. Пиримкулов Ш. Ўрта асрларда Англия. – Самарқанд, 2003.
4. Мухамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. 2-китоб. – Тошкент, 2003.

**18- mavzu: Kiyev Rusi davlati arxivlari.**

**Reja:**

1. Kiyev Rusida arxivlarning shakllanishi.
2. Kiyev va Novgorod arxivlari.
3. Knyazliklar va monastrlar arxivlari. Sofiya sobori, Kirilo-Belozersk, Solovets, Troitse-Sergeyev arxivlari.
4. XI–XII asrlardagi yirik kolleksiyalar. Uyg'onish va reformatsiya davrlarining arxiv ishiga ta'siri.

**Darsning maqsadi:** Rivojlangan o'rta asrlar davrida Kiyev Rusi davlatining boshqaruv va ijtimoiy hamda iqtisodiy hayotiga doir arxiv manbalarini kompleks o'rganish orqali talabalarda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Kiyev Rusi arxivlari. Kiyev va Novgorod arxivlari. Knyazliklar va monastrlar arxivlari. Sofiya sobori, Kirilo-Belozersk, Solovets, Troitsk-Sergeyev arxivlari. Qo'lyozma asarlarning havaskorlar tomonidan

to'planishi. XI–XII asrlardagi yirik kolleksiyalar. Uyg'onish va reformatsiya davrlarining arxiv ishiga ta'siri. «Царский архив» arxivi fondlari. Posolskiy arxivi hujjatlari. XVI–XVII asrlarda davlat boshkaruv organlari buyruqlari, hujjatlari asosida katta-katta arxivlar vujudga keldi. Hujjatlar o'sha paytda qog'ozga yozilib ustunlarga yopishtirilib saqlangan.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “O'z-o'zini nazorat”, “Klaster”.*

**Tayanch so'z va iboralar:**

Kiyev Rusi, Troitsk arxivi, knyazlik arxivlari, posad kishilari, dyakon, beresta, pergament.

**Nazorat savollari:**

1. Kiyev Rusidagi ilk arxivni toping?
2. Kiyev Rusidagi arxiv hujjatlari nimaga yozilgan?
3. “Посольский архив” qaysi davrga oid?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Семёнов В. Ўрта асрлар тарихи. – Тошкент, 1973.
2. Қурбонғалиева Р. Ўрта асрлар тарихидан ўқув-методик қўлланма. – Тошкент, 1991.
3. Мухамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. 2-китоб. – Тошкент, 2003.
4. Советская историческая энциклопедия. 1-17 том. – М., 1976.
5. Максакова В. А. Архивное дело в первые годы в советской власти. – М., 1959.

## II semester

### 19- mavzu: Yangi davrda Germaniyada arxivlarning shakllanishi.

#### Reja:

1. Yangi davrda Germaniyada arxivlar тизими.
2. Dinastiya arxivlari.
3. Hukumat arxivlari

**Darsning maqsadi:** Yangi tarix davrida Germaniyada arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Germaniyada arxiv ishining rivojlanishi Italiya davlati bilan bir biriga o'xshashligi. Imperator arxivlari. Shajara arxivlari. Imperiya sudi va imperiya Kengashi arxivlari, ularning turli shaharlarda saqlanganligi. Aynan o'sha paytdan Imperiyaning kichik bo'lagi kichik davlatdan Germaniya arxivi paydo bo'lgan. XVII asrga kelib Germaniyada 3 ta asosiy arxiv mavjudligi: Dinastiya arxivi. Ichki boshqaruv arxivi. Davlat arxivi.

Dinastiya arxivida (HAUS ARCHIV) – yer egaligi, merosxo'rlik huquqlari, tug'ilganligi haqidagi guvohnoma, dafn marosimlari, mansabdor shaxslarning siyosiy yozishmalari, saroy ishchilari, ho'jalik ishlari va boshqa hujjatlar mavjud. Ba'zi bir ro'yxatga olish hujjatlari ham saqlanib qolgan.

Davlat arxivi (STATE ARCHIV ) unda asosan tashqi siyosatga oid hujjatlar saqlanib qolgan, masalan boshqa davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar, diplomatik shartnomalar, yozishmalar bundan tashqaridavlat huquqiga oid ko'pgina ma'lumotlar mavjud.

Ichki boshqarma davlat arxivida (LENDES ARCHIV) davlat boshqaruviga oid hujjatlar bo'lib, uning tarkibida qonunchilik, huquq, sud, moliya va boshqaruvga oid hujjatlar mavjudligi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”, “Klaster”*.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Germaniya imperiyasi, papalik, imperiya arxivlari, davlat arxivlari, hududiy arxivlar, bundestag, bundesrat, xristian cherkovi.

### **Nazorat savollari:**

1. Germaniyaning arxivlar tizimidagi asosiy muammolar nimadan iborat?
2. Dinastiya arxivlarida qanday hujjatlar saqlangan?
3. Imperiya arxivlarida hujjatlar qanday tartibda saqlangan?
4. Hududiy arxivlarning eng yirigi qaysi shaharda saqlangan?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Бржовстовская Н. В. Архивное дело в странах Европы и Америки в период капитализма. – М., 1957.
2. Карапетянц И. В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века. – М., 1997.
3. Карапетянц И. В. Научно технические архивы в зарубежных странах. – М., 2002. 1-2 часть.
4. Валберг Х. Электронные документы в архивах (на примере Германии) // Отечественные архивы. – 2004. – №1. – С. 51–55.
5. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. 3-китоб. – Тошкент, 2003.

### **20-Мавзу: Yangi davrda Angliyada arxiv ishi.**

#### **Reja:**

1. XVI asrda davlat hujjatlari arxivini tashkil etilishi.
2. London tarixiy saqlovxonalarining jamlanishi.
3. Angliyaда архив соҳасидаги ислохотлар.

**Darsning maqsadi:** Yangi tarix davrida Angliyada arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Yangi davrda arxivlarga bo'lgan e'tibor va qiziqishning o'sishi. Hujjatlarni saqlash tamoyillarini ishlab chiqilishi. J. Dyukanj, J.Mabilon va boshqa yetuq arxivchilarning faoliyati. XVIII asrdagi ilk tadqiqotlar. Angliya Milliy arxivining tashkil etilishi. XIX–XX asrda arxivlarni markazlashtirilishi. XIX asr oxirida arxiv islohotining tugatilishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Aqliy hujum”*, *“Klaster”*.

**Tayanch so'z va iboralar:**

London saqlovxonalari, ingliz arxivlari, Angliya Milliy arxivi, J. Dyukanj, J.Mabilon va boshqa yetuq arxivchilarning faoliyati.

**Nazorat savollari:**

1. Angliya tarixidagi dastlabki arxivlar qaysi davrga oid?
2. Qirollik arxivlariga qaysi arxivlar kirgan?
3. Ingliz arxivlarida hujjatlar qay tartibda saqlangan?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
2. Бржовстовская Н. В. Архивное дело в странах Европы и Америки в период капитализма. – М., 1957.
3. Карапетянц И. В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века. – М., 1997.
4. Карапетянц И. В. Научно технические архивы в зарубежных странах. – М., 2002. 1-2 часть.
5. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. 3-китоб. – Тошкент, 2003.
6. Чернов А.В. История и организация архивного дела. – М., 1950.

**21-Мавзу: Yangi davrda Fransiyada arxiv ishi.**

**Reja:**

1. Fransiyada 1780-1790 yillarda Burjua inqilobi va arxiv islohatlarining o'tkazilishi.

2. 1794 yilgi arxivlar to'g'risidagi dekretining ahamiyati.
3. XIX asr ikkinchi yarmida arxiv islohotlari va arxiv maktablari haqida ma'lumotlar.

**Darsning maqsadi:** Yangi tarix davrida Fransiyada arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** XVIII asrdagi ilk tadqiqotlar. Fransiya Milliy arxivining tashkil etilishi. XIX–XX asrda arxivlarni markazlashtirilishi. XIX asr oxirida arxiv islohotining tugatilishi. Fransiyadagi Xartiyalar arxivi. 1796 yilda Fransiyada distriktlarga bo'linish maslasi bekor qilindi. Departament arxivlari tashkil etilgandan so'ng Direktoriya ularga e'tibor qaratmadi, ya'ni arxivlarni markazlashtirishga e'tibor qaratmadi. Departament arxivlari mahalliy hokimiyatga bo'ysundirildi. Milliy arxiv bilan mahalliy arxivlar aloqasi uzildi. Hokimiyat vakillari hujjatlarning qadr-qimmatini bilmas edi, shu sabab arxivlarga e'tibor pasaydi. 1830 yilda tarixga murojaat qilish, yangi manbalarni qidirish ishlari, arxivlarga e'tibor qaratilishiga sabab bo'ldi.

1839 yilda Departament arxivlarida hujjatlarni saqlash haqida ko'rsatma, 1841 yilda ularni klassifikatsiya qilish haqida ko'rsatmalar qabul qilindi.

1841-1842 yillarda kommunal va gospital arxivlar haqida ko'rsatmalar qabul qilindi. Ikkala arxivlar ham Departament direktoriga bo'ysunar edi.

Milliy arxiv yoki Imperiya arxivi oldingi maqomidan ayrildi . lekin uning tarkibida katta va qimmatli saqlov birligi bor edi. U Fransuz tarixini yorituvchi bir necha asrlik tarixga ega bo'lgan tarixiy manbalarga ega bo'lgan xazina edi. Unda birinchidan Fransiyaning inqilobgacha bo'lgan muhim hujjatlari va kolleksiyalari yig'ilgan edi. Ular XIII asrdan boshlanib “Xartiya xazinası”, Parij parlamenti fondi, hisob palatasi, sud va qamoqxona muassasalari hujjatlari, qirollar va shahzodalarning saroy va shaxsiy hujjatlari, votchina, sud va ma'muriy arxivlar hujjatlari, cherkov va monastir idoralari hujjatlari, ritsarlik ordenlari, qadimgi yorliqlar, diplomlar, sudlar, xronikalar kabi alohida o'ta noyob va muhim koleksiyasi mavjud.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *"Birgalikda o'rganamiz", "O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing".*

**Tayanch so'z va iboralar:**

Ma'muriy arxivlar, yuridik arxivlar, inqilob arxivlari, sud hujjatlari, faxriy yorliqlar, departamen arxivlari, Xartiyalar maktabi

**Nazorat savollari:**

1. XVIII asrda Fransiya arxivlaridagi eng asosiy muammolarni sanang?
2. 1794- yilda arxivchilar bo'limi nechta seksiyaga bo'lingan?
3. Fransiya Milliy arxivida nechta fond mavjud bo'lgan?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
2. Бржовстовская Н. В. Архивное дело в странах Европы и Америки в период капитализма. – М., 1957.
3. Карапетянц И. В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века. – М., 1997.
4. Карапетянц И. В. Научно технические архивы в зарубежных странах. – М., 2002. 1-2 часть.
5. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. 3-китоб. – Тошкент, 2003.

**22- mavzu: Yangi davrda Italiyada arxiv ishi.**

**Reja:**

1. Yangi davrda Italiyada arxiv ishining yangicha asosda tashkil etilishi.
2. Italiyadagi diniy arxivlar faoliyati.
3. XIX asrda Italiyada arxiv sohasidagi islohotlar.

**Darsning maqsadi:** Yangi tarix davrida Italiyada arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Yagona Italiya davlati tashkil etilgandan so'ng ko'pgina ilgarigi qiroliklar hududida madaniy, siyosiy markazlari mavjud edi. Italiya



qirolligi birinchi o'rinda 1861 yildan keyingi markaziy muassasalarning hujjatlarni yig'ish ishlari olib borilgan. 1870 yilda komissiya tuzilib, u umumiy arxiv reformasi loyihalarini tayyorlay boshladi. Ushbu tayyorgarchilik ishlari 1874 yil 5 martda va 1875 yil 27 mayda arxiv borasidagi qonunlarda namoyon bo'ldi. Arxiv reformasi jarayonida arxivlarni markazlashgan boshqaruv tizimini joriy etish choralari ko'rildi. Endi mamlakatda Davlat arxivlarini boshqarish ishlarini ichki ishlar vazirligi qoshidagi arxiv seksiyasi olib borar edi. Bundan tashqari Kengash organi tashkil etilib, ilmiy texnik masalalarni hal etar edi. Kengash tarkibida arxiv direktorlari, xokimiyat muassasalari arxiv xodimlari keyinchalik universitet professorlari ham qo'shilgan. Arxiv yeksiyasi qoshida bevosita Qirollik bosh arxivi joylashgan. Arxiv boshqa Yevropa mamlakatlari Markaziy arxivlaridan farq qilib, u tarixiy arxiv emas edi. Unga vazirliklardan va markaziy muassasalarning 1861 yildan keyingi hujjatlari saqlovga olingan.

Mamlakat 10 ta arxiv okrugiga bo'lindi. Ular Italiyaning tarixiy bo'linishiga ko'ra tashkil etilib, har bir okrugda 1-darajadagi va 2-3ta ikkinchi darajadagi arxivlarga bo'lingan. 1-darajali arxiv boshlig'i Arxiv okrug boshlig'i sifatida Superintendant bo'lsa, 2-darajadagi arxivga direktor boshlig'i bo'lib, superintendantga bo'ysungan.

Ushbu 17 ta davlat arxivlari italiya birlashuviga qadar bo'lgan hujjatlar saqlangan. 1871- yilda Neapol va Florensiya yirik tarixiy arxivlari asosida Rim arxivi tashkil etilgan. uning tarkibiga papa hukmronligi davri davridagi cherkov davlati bo'lmish vatikan hujjatlari saqlanganligi. Venetsiya arxivi faoliyati.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Birgalikda o'rganamiz”, “O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”.*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Ma'muriy arxivlar, yuridik arxivlar, inqilob arxivlari, sud hujjatlari, faxriy yorliqlar, diniy arxivlar, Papalik arxivlari

#### **Nazorat savollari:**

1. Italiya yagona davlat sifatida birlashtirilgandan so'ng arxiv ishida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?

2. Venetsiya arxivir haqida ma'lumot bering?
3. Papalik arxivlari haqida qisqacha ma'lumot bering?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
2. Бржовстовская Н. В. Архивное дело в странах Европы и Америки в период капитализма. – М., 1957.
3. Карапетянц И. В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века. – М., 1997.
4. Карапетянц И. В. Научно технические архивы в зарубежных странах. – М., 2002. 1-2 часть.
5. Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлат ва ҳуқуқи тарихи. 3-китоб. – Тошкент, 2003.
6. Чернов А. В. История и организация архивного дела. – М., 1950.
7. История Италии. – М., 1973.

### **23- mavzu: Yangi davrda Ispaniyada arxiv ishi.**

#### **Reja:**

1. XVIII asrda Ispaniyada arxivlarning iqtisodiy ahvoli.
2. Ispaniyada arxiv sohasidagi ilk tadqiqotlar.
3. XIX–XX asrlarda Ispaniyada arxivlarni markazlashtirilishi. XIX asr oxirida arxiv islohotining o'tkazilishi.

**Darsning maqsadi:** Yangi tarix davrida Ispaniyada arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Ispaniyada arxivlarning keyingi rivojlanish bosqichi keyingi Ispan qirolliklarida shakillangan. Ulardan yiriklari Kastiliya, Aragona, Navarro qirolligi, Barselona grafliklarida katta ahamiyatga ega bo'lgan arxivlar mavjud bo'lgan. Ular hozirgi kungacha saqlanib qolgan bo'lib, IX-XII asrlarga tegishli

hujjatlar mavjud. Barselonadagi Kataloniya grafligi arxivida XIII asrga tegishli Yevropada mashhur arxiv opislari saqlangan. Shu bilan birga cherkov muassasalarida ham hujjatlar yig'ilib borgan. Umuman olgan feodalizm davrida faqatgina qirollik hujjatlarini yig'ish va saqlash ishlariga e'tibor qaratilgan. Chunki bu hujjatlardan qirollik hukumati davlani boshqarishda va feodallar bilan kurash olib borishda foydalangan.

1479 yilda Ispaniya davlatining birlashtirish ishari yuz berib, unda Aragona va kastiliya qirolliklari birlashgan (Izabella va Ferdinand). Albatta ular o'z hukmronlik doirasini kengaytirish maqsadida arxiv hujjatlaridan keng foydalanishgan. 1509 yilda qirollik farmoni bilan hukumatning barcha muhim hujjatlari bir joyga yig'ilgan. Hujjatlar Valyadolid (Ispaniyaning eski poytaxti) shahrida to'plangan, keyinchalik shahada arxiv binolari yetishmasligi muammolari kelib chiqqan.

1542 yilda Karl IV hukmronligi davrida Simankas qa'lasida bir qismi berilgan (Valyadolid shahri yaqinida). Ushbu qa'laning deqorlari mustaxkam bo'lib, hujjatlar xavfsiz joyda edi. Ularni saqlash uchun maxsus saylangan arxivist Diego de Ayala arxiv hujjatlarini o'sha paytda juda yaxshi tartibga solgan. Albatta arxivda yig'ilgan hujjatlar XV asr oxiri qirolligiga mansub hisoblanadi, oldingi boshqa alohida qirolliklar hujjatlari o'z joylarida saqlangan. Aragona karonasi h ujjatlari Barselona va Saragosa shao'rlariga taqsimlandi. Ispaniya XVII-XVIII asrlarda ham iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakat bo'lgan. Ko'pgina arxivlar tashkil etilgan bo'lsada, ular bir-biri bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli arxivlar faoliyatida asta-sekin tartibsizliklarga olib keldi. Hatto Simankas arxivi ham XVIII asr oxirlariga kelib, hujjatlar soni ortgan bo'lsada, juda tartibsiz holatda edi. Napoleon davrida Ispaniyada ko'pgina arxivlarga zarar yetdi. Ayniqsa Simankas arxivini otxonaga aylantirilishi, Barselonadagi arxiv, Saragosadagi Aragona qirolligi arxivlari nobud bo'ldi. Bularga qanoatlanmagan Napoleon Parijda dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan arxiv tashkil etish maqsadida Simankas arxivdagi olib chiqib ketdi. Ular Pireneya oroli orqali olib chiqib ketilib, yana qaytarib olib kelingan va bu ishlar jarayonida

hujjatlarga katta zarar yetgan. Ayrim hujjatlari hozirgacha Frnsiyada saqlanib qolgan.

1844 yilgacha arxivlarni Ispaniya hukumati arxivlardan tadqiqot maqsadlarida foydalanuvchilarga siyosiy maqsadlarda ruxsat bermadilar. 1844 yildan XVI asrgacha bo'lgan hujjatlar tadqiqotchilarga foydalanishga berilla boshlandi. Ispaniya 1852-1856 yillarda sodir bo'lgan inqilobiy vaziyatlarda arxiv va madaniyat sohalarida birqator reformalar o'tkaziladi. 1858 yilda arxivlar faoliyati kutubxonachilar, arxeolog va arxivchilar korpusi tashkilotiti tarkibiga kiritildi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *“Birgalikda o'rganamiz”, “O'ylang - juftlikda ishlang - fikr almashing”.*

**Tayanch so'z va iboralar:**

Simankas arxivi, Madrid arxivlari, inqilob arxivlari, sud hujjatlari, papa yorliqlari, diniy arxivlar, kortes arxivlari

**Nazorat savollari:**

1. Ispaniyada arxivlar ishining rivojlanishiga nimalar to'sqinlik qilgan?
2. Simankas arxivi haqida ma'lumot bering?
3. Madrid arxivi qachon tashkil etilgan?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Бржовстовская Н. В. Архивное дело в странах Европы и Америки в период капитализма. Т-1-2. 1957.
2. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
3. Иофе В. Г. Всеобщая история архивов и ведущие архивы современного мира. – Т., 2009.
4. Карапетянц И. В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века. – М., 1997.
5. Чориев Ш. Ш. Архивларнинг умумий тарихи ва ҳозирги замоннинг етакчи архивлари. – Тошкент, 2010.

## **24- mavzu: Yangi davrda AQShda arxiv ishi.**

### **Reja:**

1. G'arbiy Yevropa va AQShda iqtisodiyot arxivlarining paydo bo'lishi.
2. Yangi davrda arxivlarga bo'lgan e'tibor va qiziqishning o'sishi.
3. Hujjatlarni saqlash tamoyillarini ishlab chiqilishi.

**Darsning maqsadi:** Yangi tarix davrida AQShda arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** G'arbiy Yevropa va AQShda iqtisodiyot arxivlarining paydo bo'lishi. Yangi davrda arxivlarga bo'lgan e'tibor va qiziqishning o'sishi. Hujjatlarni saqlash tamoyillarini ishlab chiqilishi. J. Dyukanj, J. Mabilon va boshqa yetuk arxivchilarning faoliyati.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondashuv.*

### **Tayanch so'z va iboralar:**

AQSh Milliy arxivi, Nyu-York Markaziy Davlat arxivi, Metropoliten arxivi, AQSh arxivlarida boshqaruv sistemasi, Vashington arxivi fondlari.

### **Nazorat savollari:**

1. AQShda ilk arxivlar qachon paydo bo'lgan?
2. AQSh arxivlarning rivojlanishida qaysi davlatning ta'siri ko'proq seziladi?
3. AQSh arxivlarida asosan qanday mazmundagi hujjatlar saqlanadi?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Карапетянц И. В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века. – М., 1997.
2. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М.: ПрофОбрИЗдат, 2002.
3. Иофе В. Г. Всеобщая история архивов и ведущие архивы современного мира / Методическое пособие для направления бакалавриата «Архивоведение». – Т., 2009.

4. Маяковский И. Очерки по истории архивного дела. Ч. 1-2. – М., 1960.

## **25- mavzu: Rossiya imperiyasida arxiv ishi.**

### **Reja:**

1. XVIII asrda Rossiya imperiyasida hujjat yuritish tizimining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Pyotr I ning arxiv sohasidagi islohotlari.
3. XIX asrda Rossiyada arxiv sohasidagi islohotlar yakunlari.

**Darsning maqsadi:** Yangi tarix davrida Rossiya imperiyasida arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Yangi tarix davrida Rossiya imperiyasida sodir bo'lgan madaniy o'zgarishlar. Ish yuritishning yangicha uslubda tashkil etilishi. Sud va ma'muriy hujjatlardagi o'zgarishlar. Krepostnoylik huquqiga doir arxiv hujjatlari. Pyotr I arxiv sohasidagi islohotlari. Kunsamera arxivlari. Senat arxivlari.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** o'z-o'zini nazorat.

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Rossiya imperiyasi, podsholik arxivlari, Pyotr I arxiv sohasidagi islohotlari. Kunsamera arxivlari. Senat arxivlari.

### **Nazorat savollari:**

1. Rossiya imperiyasida ilk arxivlar qachon paydo bo'lgan?
2. Rossiya imperiyasida arxivlarning rivojlanishida qaysi davlatning ta'siri ko'proq seziladi?
3. Pyotr I arxiv sohasidagi islohotlari natijalari haqida ma'lumot bering?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Историческая энциклопедия Т-1-17. -Т.,1976
2. Исторический архив», «Вестник архивиста», «Отечественные архивы» журналлари.
3. Советская историческая энциклопедия.,1-17 том ,1976 г
4. Маяковский И. Очерки по истории архивного дела. Ч. 1-2. – М., 1960.
5. Максакова В. А. Архивное дело в первые годы в советской власти. – М., 1959.
6. Чернов А. В. История и организация архивного дела. – М., 1950.

### **26- mavzu: Xorijiy mamlakatlarda I jahon urushidan so'ng arxiv ishi.**

#### **Reja:**

1. XX asrda arxivlarni markazlashtirilishi.
2. Yevropa mamlakatlarida arxivlarning siyosiylashuv jarayonlari.
3. Ikkinchi jahon urushi va uning ingliz arxivlariga ta'siri.

**Darsning maqsadi:** Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda Yevropa mamlakatlarida arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Birinchi jahon urushining Yevropa mamlakatlaridagi arxivlar faoliyatiga ta'siri. XX asrning 20-30-yillarida Angliyada arxiv ishi. Ingliz Milliy arxivining tashil etilishi. Ikkinchi jahon urushi va uning ingliz arxivlariga ta'siri. Angliya harbiy arxivlari. Angliyada iqtisodiyot arxivlarini paydo bo'lishi. Eng yangi davr arxivlari va hujjatlarni ilmiy-amaliy maqsadlarda ishlatish masalalari. Ilk arxiv jurnallarining paydo bo'lishi va arxiv manbalarini e'lon qilishning kengaytirilishi. Birinchi jahon urushining jahon arxiv ishiga ta'siri. Umumgermaniya arxivi va uning xususiyati. Fransiya Milliy arxivining tashkil etilishi. XX asrda arxivlarni markazlashtirilishi. XX asr oxirida arxiv islohotining tugatilishi. Eng yangi davr arxivlari va hujjatlarni ilmiy-amaliy maqsadlarda

ishlatish masalalari. Ilk arxiv jurnallarining paydo bo'lishi va arxiv manbalarini e'lon qilishning kengaytirilishi. Birinchi jahon urushining jahon arxiv ishiga ta'siri. Umumital'yan arxivi va uning xususiyati.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** dialogik yondashuv.

**Tayanch so'z va iboralar:**

Birinchi jahon urushi. Arxiv jurnallari, Yevropa mamlakatlari. Birinchi jahon urushining jahon arxiv ishiga ta'siri. Umumgermaniya arxivi va uning xususiyati. Fransiya Milliy arxivining tashkil etilishi. XX asrda arxivlarni markazlashtirilishi. XX asr oxirida arxiv islohotining tugatilishi. Eng yangi davr arxivlari va hujjatlarni ilmiy-amaliy maqsadlarda ishlatish masalalari. Ilk arxiv jurnallarining paydo bo'lishi va arxiv manbalarini e'lon qilishning kengaytirilishi.

**Nazorat savollari:**

1. Birinchi jahon urushidan keyin Yevropa mamlakatlarida arxivlar sohasida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
2. Harbiy arxivlar faoliyatida qanday yangiliklar sodir bo'ldi?
3. Ilk arxiv jurnallarini sanab bering:

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Историческая энциклопедия Т-1-17. – Т., 1976.
2. Исторический архив», «Вестник архивиста», «Отечественные архивы» журналлари.
3. Карапетянц И. В. Научно технические архивы в зарубежных странах. М., 2002. 1-2 часть.
4. Советская историческая энциклопедия. 1-17 том. – М., 1976.
5. Маяковский И. Очерки по истории архивного дело. Ч. 1-2. – М., 1960.
6. Максакова В. А. Архивное дело в первые годы в советской власти. – М., 1959.

**27- mavzu: Markaziy Yevropa mamlakatlarida arxiv ishi.**

**Reja:**



1. Polshada arxivlar faoliyatidagi o'zgarishlar.
2. Vengriya va Ruminiya arxivlari faoliyati.
3. Chexoslovakiya va Yugoslaviya arxivlari.

**Darsning maqsadi:** Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda Markaziy Yevropa mamlakatlarida arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Polshada arxiv ishi. Krakovdagi qirollik arxivi. Arxiv tarkibidagi hujjatlar. Chexiya va Slovakiya arxivlari. Arxiv sohasidagi o'zgarishlar. Ilk arxiv jurnallarining paydo bo'lishi va arxiv manbalarini e'lon qilishning kengaytirilishi. Birinchi jahon urushining jahon arxiv ishiga ta'siri.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondashuv.*

#### **Tayanch so'z va iboralar:**

Markaziy Yevropa mamlakatlari. Chexoslovakiya arxivi. Polsha arxivi. Krakov arxivi. Ruminiya arxivi. Buxarest arxivi. Vengriya arxivi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Polsha sovet namunasidagi arxivlar qachondan tashkil etila boshlangan?
2. Krakov arxivida qanday hujjatlar saqlangan?
3. Chexoslovakiya arxivlarida natsistlarga doir nechta fond mavjud edi?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Историческая энциклопедия. Т-1-17. – Т., 1976.
2. Исторический архив», «Вестник архивиста», «Отечественные архивы» журналлари.
3. Карапетянц И. В. Научно технические архивы в зарубежных странах. – М., 2002. 1-2 часть.
4. Советская историческая энциклопедия. 1-17 том. – М., 1976.
5. Маяковский И. Очерки по истории архивного дело. Ч. 1-2. – М., 1960.
6. Максакова В. А. Архивное дело в первые годы в советской власти. – М., 1959.

7. Новая история стран Европы и Америки. Первый период. – М., Высшая школа, 1998.

8. Новая история стран Европы и Америки. Второй период. – М., Высшая школа, 1998.

## **28- mavzu: Janubiy va sharqiy Osiyo mamlakatlarida arxiv ishi.**

### **Reja:**

1. Hindiston Milliy arxivi tarixi va faoliyati.
2. Xitoyda arxivlar faoliyatidagi o'zgarishlar.
3. Yaponiyada arxiv ishining yangi asosda tashkil etilishi.

**Darsning maqsadi:** Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda Janubiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** Pekin va Nankindahi tarixiy arxivlar. “Madaniy inqilob” yillarida arxivlarga zarar yetishi. Min va Sin sollalari arxivlari. XX asrning 20-30-yillarida Xitoyda arxiv ishi. Yapon Milliy arxivining tashkil etilishi. Urushdan keyingi yillarda Xitoyda arxivlarning qayta tiklash. Xitoyda arxiv ishi islohotlari. Kalkuttada imperator arxivining tashkil etilishi. XX asrning 20–30-yillarida Hindistonda arxiv ishi. Hind Milliy arxivining tashkil etilishi. Urushdan keyingi yillarda Hindistonda arxivlarning qayta tiklash. Hindistonda arxiv ishi islohotlari. XX asrning 20-30-yillarida Yaponiyada arxiv ishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondashuv.*

### **Tayanch so'z va iboralar:**

Pekin arxivi. Nankin arxivi. Xitoy sulolalari tarxi. Arxiv manbalari. Dehli arxivi. Tokio arxivi. Kalkutta arxivi.

### **Nazorat savollari:**

1. Osiyoning yirik arxivlari to'g'risida qanday ma'lumotlarga egasiz?
2. Xitoy Fanlar Akademiyasi arxivida nechta fond mavjud?
3. Hindistondagi Kalkutta arxiviga qachon asos solingan?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Историческая энциклопедия. Т-1-17. – Т., 1976.
2. Исторический архив», «Вестник архивиста», «Отечественные архивы» журналлари.
3. Карапетянц И. В. Научно технические архивы в зарубежных странах. – М., 2002. 1-2 часть.
4. Советская историческая энциклопедия. 1-17 том. – М., 1976.
5. Маяковский И. Очерки по истории архивного дело. Ч. 1-2. – М., 1960.
6. Разалиев Ю. Н. Новая и новейшая история стран Азии и Африки. – М.: Высшая школа, 1987.

### **29- mavzu: Janubiy-g'arbiy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida arxiv ishi.**

#### **Reja:**

1. Eron Islom Respublikasida arxiv ishi.
2. Turkiya Respublikasida arxivlar tizimi.
3. Markaziy Osiyo mamlakatlarida arxiv ishi.

**Darsning maqsadi:** Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda Janubiy-g'arbiy va Markaziy Osiyo mamlakatlarida arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** XX asr boshlarida Turkiyadagi siyosiy ahvol va uning arxivlarga ta'siri. Turkiya Markaziy Davlat arxivi va uning hujjatlari. Suriya, Eron, Iroq va Afg'oniston arxivlari. Markaziy Osiyo mamlakatlarida arxiv ishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *munozara.*

**Tayanch so'z va iboralar:**

XX asr boshlarida Turkiyadagi siyosiy ahvol va uning arxivlarga ta'siri. Turkiya Markaziy Davlat arxivi va uning hujjatlari. Suriya, Eron, Iroq va Afg'oniston arxivlari. Markaziy Osiyo mamlakatlarida arxivi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Turkiya Respublikasi Tok-Kapu arxivi qachon tashkil etilgan?
2. Eron Islom Respublikasida arxivlarning asosiy yo'nalishlari nimadan iborat?
3. Arab mamlakatlarida arxivlar nima asosga ko'ra tashkil etilgan?

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Бржовстовская Н. В. Архивное дело в странах Европы и Америки в период капитализма. Т-1-2. – М., 1957.
2. Алексеева Е. В., Афанасьева Л. П., Бурова Е. М. Архивоведения. – М., 2002.
3. Иофе В. Г. Всеобщая история архивов и ведущие архивы современного мира. – Т., 2009.
4. Карапетянц И. В. Экономические архивы Западной Европы и США до начала XX века. – М., 1997.
5. Чориев Ш. Ш. Архивларнинг умумий тарихи ва ҳозирги замоннинг етакчи архивлари. – Тошкент, 2010.

#### **30- mavzu: AQShda arxiv ishi.**

##### **Reja:**

1. Ikkinchi jahon urushining AQSh arxivlariga ta'siri.
2. Vashington arxivi.
3. Nyu-York arxivi.

**Darsning maqsadi:** Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda AQShda arxivlar tizimidagi o'zgarishlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish ularda yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish.

**E'tibor bering:** XX asrning 20-30-yillarida AQShda arxiv ishi. AQSh Milliy arxivining tashil etilishi. Ikkinchi jahon urushi va uning AQSh arxivlarmga ta'siri. AQSh harbiy arxivlari. AQShda iqtisodiyot arxivlarini paydo bo'lishi.

**Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari:** *dialogik yondashuv.*

**Tayanch so'z va iboralar:**

Amerika Qo'shma Shtatlari. Arxiv sohasidagi islohotlar. Mustamlaka arxivlari. Vashington arxivi. Hududiy arxivlar.

**Nazorat savollari:**

1. AQSh Milliy arxiviga qachon asos solingan?
2. Vashington arxivida nechta fond mavjud?
3. AQSh arxivlarining boshqaruv shakllarini sanang:

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Автократов В. Н. Общая теория архивоведения. – М., 1973.
